**Pauli prinsipi** – atomda to‘rtala kvant soni bir xil bo‘lgan ikkita elektron bo‘lishi mumkin emas ( 1925 – yil ). Har bir orbitalda 3 ta kvant son – n,l,m (bosh, orbital, magnit kvant soni) qiymati bir xil bo‘lishi mumkin, ammo spin kvant soni farq qiladi. Ya’ni bitta yacheykada bir hil spinli ikkita elektron bo‘lmaydi.

**Gund qoidasi** – pog‘onachalardagi elektron spinlar yig‘indisi maksimal qiymatga ega bo‘lganda atom energetik jihatdan afzallikka ega bo‘ladi. Ya’ni elektronlar yacheykalarga avval bittadan keyin ikkitadan joylashadi.

1 ta elektron ko‘chishi 9 ta elementda <b>Cr, Cu, Nb, Mo, Ru, Rh, Ag, Pt, Au</b>	2 ta elektron ko‘chishi bitta elementda <b>Pd</b>
10 tasidan 2 tasida 1 elektron ko‘chganda yarim to‘ladi	<b>Cr va Mo</b>
4 tasida to‘la to‘lgan bo‘ladi	<b>Cu, Pd, Ag, Au</b> qolganida chala to‘lish kuzatiladi.

# **ELEKTRON KO'CHISH KUZATILADIGAM ELEMENTLAR KVANT SONLAR**

# **ATOM ELEKTRON QAVATLARIDAGI ELEKTRONLARINING HOLATINI TO‘LIQ TAVSIFFLASH UCHUN KVANT SONLAR TUSHUNCHASI KIRITILGAN**

14	<b>d – orbitalda</b>	$l=2$ bo‘lib, eng ko‘pi bilan $2(2\cdot2+1)=10$ ta elektron sig‘adi.
15	<b>f – orbitalda</b>	$l=3$ bo‘lib, eng ko‘pi bilan $2(2\cdot3+1)=14$ ta elektron sig‘adi.
16	<b>Magnit kvant son –</b>	miharfi bilan belgilanib, elektron bulutlarning magnit maydoni ta’sirida biror aniq yo‘nalishiga nisbatan egallagan holatini ko‘rdatadi.
17	<b>Magnit kvant son</b>	- Idan +1 gacha qiymatlarini qabul qiladi.
18	<b>Magnit kvant son</b>	Har bir elektron qavat va qavatcha uchun to‘g‘ri keluvchi energetic yacheykalar sonini bildiradi.
19	<b>Har bir qavatchadagi yacheykalar soni</b>	$2l+1$ formula orqali topiladi.
20	<b>s – orbital uchun</b>	$l=0$ , yacheyka soni $2\cdot0+1=1$ ta bo‘ladi.
21	<b>p – orbital uchun</b>	$l=1$ , yacheyka soni $2\cdot1+1=3$ ta bo‘ladi.
22	<b>d – orbital uchun</b>	$l=2$ , yacheyka soni $2\cdot2+1=5$ ta bo‘ladi.
23	<b>f – orbital uchun</b>	$l=3$ , yacheyka soni $2\cdot3+1=7$ ta bo‘ladi.
24	<b>Spin kvant soni –</b>	Elektronning o‘z o‘qi atrofida qaysi tomonga harakatlanishini ko‘rsatadi va $m_s$ – harfi bilan belgilanadi. Agar elektron o‘z o‘qi atrofida soat strelkasi bo‘yicha aylansa ( $\uparrow$ holat) $+{1/2}$ qiymatni, soat strelkasiga teskari yo‘nalishda harakatlansa ( $\downarrow$ holat) $-{1/2}$ qiymatni qabul qiladi.
25	<b>Klechkovskiy 1 – qoidasi</b>	Elektron pog‘onachalarning elektronlar bilan to‘lib boorish ketma – ketligi, ularning bosh va orbital kvant sonlar yig‘indisi ( $n + l$ ) qiymati ortib borishi tartibida bo‘ladi.
26	<b>Klechkovskiy 2 – qoidasi</b>	Agar bir nechta pog‘onacha uchun $n$ va $l$ qiymatlari yig‘indisi bir xil bo‘lsa, bunda avval bosh kvant soni kichik bo‘lgan pog‘onacha to‘ladi. Ya’ni: 1s, 2s, 2p, 3s, 3p, 4s, 3d, 4p, 5s, 4d, 5p, 6s, 4f, 5d, 6p, 7s, 5f, 6d, ... tartibida bo‘ladi.
27	<b>Pauli prinsipi</b>	Atomda to‘rtta kvant son bir xil bo‘lgan ikkita elektron bo‘lishi mumkin emas.
28	<b>Gund qoidasi</b>	Elektronlar imkonli boricha elektron yacheykalarni to‘ldirishga harakat qiladi.

$1/n$	0 (s)	1 (p)	2 (d)	3 (f)	Elektron qavatdagи $n^2$ orbital soni	Elektron qavatdagи $2n^2$ elektron soni
1	□				1	2
2	□	□□□			4	8
3	□	□□□	□□□□□		9	18
4	□	□□□	□□□□□	□□□□□□□	16	32
$m_l$	0	1, 0, +1	-2, -1, 0, +1, +2	-3, -2, -1, 0, +1, +2, +3	-	-

## ATOM – MOLEKULYAR TA’LIMOT

1. Barcha moddalar ularning fizik va kimyoviy xossalariни о‘зida saqlovchi eng kichik zarralar bo‘lgan molekulalardan iborat;
2. Molekulalar atomlardan tashkil topgan bo‘lib, ular atomlarning biror miqdoriy qonuniyat bilan o‘zaro birikuvidan hosil bo‘ladi.
3. Atomlar murakkab tuzilishga ega bo‘lib, elektron, proton, neytron va boshqa mikrozarachalardan iborat.
4. Molekulalar va atomlar to‘xtovsiz harakatda bo‘ladi;
5. Atomlarning muayyan massa va o‘lchami bor.
6. Har bir moddaning tarkibini uning molekulasi tarkibi bilan ifodalash mumkin.

1803-1804-**Djon Dalton** atom – molekular ta’limotni rivojlantirdi va atom massa haqidagi tushunchani fanga kiritdi.

### 1– JADVAL.

Element	Atom	Modda
<b>1. Tartib raqam</b> <b>2. Valentlik</b> <b>3.Oksidlanish darajasi</b>	1. Yadro zaryadi 2. Proton 3. Neytron 4. Elektron 5. Elektron qavat	1. Qaynash va suyuqlanish harorati 2. Agregat holati 3. Eruvchanlik 4. Zichlik 5. Allotropik shakl o‘zgarishi 6.rang, hid, tam va boshqa fizik xossalari

## ATOM TUZILISHI HAQIDAGI TA'LIMOT

Atomning murakkab sistema ekanligini **M. G. Pavlov** 1819 yildayoq aytib o'tgan edi.

XIX asrning 80-yillarida **B. N. Chicherin** atom huddi "Quyosh" sistemasi kabi tuzilgan va uning markaziga musbat zaryadli yadro joylashgan deb ta'riflagan edi.

**A. M. Butlerov** 1886 yilda "atomlar bizga ma'lum kimyoviy jarayonlarda bo'linmas bo'lib qolsada, keyinchalik kashf etiladigan jarayonlarda albatta bo'linishi kerak" degan edi.

1904 yilda **J. Tomson** atomning barcha qismini musbat zaryad band etadi va uni manfiy zaryadli zarrachalar–elektronlar o'rab turadi degan fikrni aytди.

Ingliz olimi **Ernest Rezerford** tadqiqotlari natijasida atom tuzilishi haqida planetar nazariya vujudga keldi. Atomga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Atom – kimyoviy elementning eng kichik zarrachasi bo'lib, o'zida o'sha elementning barcha kimyoviy hossalarini mujassamlashtiradi. Atom elektroneytral zarracha bo'lib, u musbat zaryadli yadro va manfiy zaryadli elektronlardan iborat. Atomning deyarlik barcha massasini yadro massasi tashkil etadi. Atom yadrosi nuklonlardan, ya'ni proton va neytronlardan tuzilgan. Bu nazariya dastlab 1932 yilda **D. D. Ivanenko** va **Ye. N. Gapon** tomonidan taklif etilgan.

Elektron massasi  $m_0=9,11 \cdot 10^{-31}$  kg; uning zaryadi elektr zaryadining eng kichik miqdorini tashkil etadi, uning kattaligi  $e=1,6 \cdot 10^{-19}$  Kl (Kulon) ga teng.

Atomning radiusi ham juda kichik:  $10^{-10}$  m (yoki  $10^{-9}$  nm).

Yadro radiusi esa  $10^{-4}$ - $10^{-5}$  nm chamasida bo'ladi, ya'ni atomnikidan tahminan  $10^5$  marta (100000) kichikdir.

1911 yilda **E. Rezerford** atomlar bo'linmaydigan sharsimon zarralardir deb qarovchi g`oyalarni inkor etdi va atom tuzilishi haqida o'zining planetar (yoki nuklear) nazariyasini taklif qildi. Bu nazariyaga muvofiq atom markazida musbat zaryadli yadro mavjud bo'lib, uning atrofida elektronlar harakat qiladi. **E. Rezerfordning** tadqiqotlari yadro fizikasining yaratilishiga asos bo'ldi.

Elektron zaryadi qiymatini 1909 yilda **R. Malliken** aniqladi.

Protonning massasini esa **Ye. Golshteyn** aniqlagan edi. Proton massasi vodorod atom massasiga teng bo'lib chiqdi. Proton (belgisi-p) ning massasi  $m(p)=1,672649 \cdot 10^{-27}$  kg yoki uglerod birligi (massaning atom birligi)da 1,007276 ga va zaryadi +1 ga teng (elektrostatik birlikdagi qiymati  $1,602189 \cdot 10^{-19}$  Kl). Yadro jarayonlarini aks ettirishda yoziladigan tenglamalarda bu zarrachani  $\frac{1}{1} p$  ko'rinishda ifodalanadi.

Neytron massasi ( $1,6747 \cdot 10^{-27}$  kg) 1932 yilda **J. Chedvik** tomonidan aniqlandi. Neytron (belgisi "n") neytral zarracha bo'lib, uning massasi  $m(n)=1,674954 \cdot 10^{-27}$  kg ga yoki 1,008665 m.a.b. ga teng.

## ELEKTRON KO‘CHISH KUZATILADI

1 ta elektron ko‘chishi 9 ta elementda <b>Cr, Cu, Nb, Mo, Ru, Rh, Ag, Pt, Au</b>	2 ta elektron ko‘chishi bitta elementda <b>Pd</b>
10 tasidan 2 tasida 1 elektron ko‘chganda yarim to‘ladi <b>Cr va Mo</b>	
4 tasida to‘la to‘lgan bo‘ladi <b>Cu, Pd, Ag, Au</b> qolganida chala to‘lish kuzatiladi.	

### 2– JADVAL.

A T O M   T A R K I B I						
Yadro zaryadi	Protonlar (P) soni	Elektronlar ( $\bar{e}$ ) soni	Neytronlar (N) soni	Elektron qobiqlar	Atom (Ar) massasi	Absolyut ( $A_{abs}$ ) massasi
Tartib raqamiga teng	Tartib raqamiga teng	Tartib raqamiga teng	$N = Ar - P$	Davr raqamiga teng	Davriy jadvalda berilgan	$A_{abs} = \frac{Ar / Mr}{6,02 \cdot 10^{23}}$

### 3– JADVAL.

#### IZOTOP, IZOBAR, IZOTON, IZOELEKTRON

<b>IZOTOP</b>	Bir xil: ✓ yadro zaryadi ✓ protonlar soni ✓ elektronlar soni Xar xil: 1) atom massasi 2) neytronlar soni	$O_8^{16}$ $O_8^{17}$ $O_8^{18}$ , $H_1^1$ $H_1^2$ $H_1^3$ , $Ca_{20}^{40}$ $Ca_{20}^{42}$ $Ca_{20}^{43}$ , $F_9^{19}(1ta)$ , $K_{19}^{39}$ $K_{19}^{40}$ , $Cu_{29}^{63}$ $Cu_{29}^{65}$ , Fe (6 ta), Hg (7 ta), Xe (9 ta), Sn (10 ta).
<b>IZOBAR</b>	Bir xil: ✓ atom massasi Xar xil: 1) yadro zaryadi 2) protonlar soni 3) neytronlar soni 4) elektronlar soni	$Ar_{18}^{40}$ $K_{19}^{40}$ $Ca_{20}^{40}$ , $Cu_{29}^{65}$ $Zn_{30}^{65}$ , $Cd_{48}^{112}$ $Sn_{50}^{112}$
<b>IZOTON</b>	Bir xil: ✓ neytronlar soni Xar xil: 1) atom massasi 2) yadro zaryadi 3) protonlar soni 4) elektronlar soni	$Cr_{24}^{52}$ $Mn_{25}^{53}$ $Fe_{26}^{56}$ N = 28 ta,  $Xe_{54}^{136}$ $Ba_{56}^{138}$ $La_{57}^{139}$ , N = 28 ta
<b>IZOELEKTRON</b>	Bir xil: ✓ elektronlar soni Xar xil: 1) atom massasi 2) yadro zaryadi 3) protonlar soni 4) neytronlar soni	$O_2^-$ $F^-$ $Ne$ $Na^+$ $Mg^{2+}$ $Al^{3+}$ $\bar{e} = 10$ ta,  $CH_4$ $NH_3$ $H_2O$ $\bar{e} = 10$ ta

$^1\text{H}$ ;  $^2\text{H}$ ;  $^3\text{H}$  :izatoplar soni=3 ta

$^{16}\text{O}$ ;  $^{18}\text{O}$  :izatoplar soni=2 ta



I N D E K S	Izatoplar soni				
	1	2	3	4	
	1	1	3	6	
	2	1	4	10	
	3	1	5	15	
	4	1			35

$$2*6=12 \text{ ta hosil bo'ladi}$$

#### 4—JADVAL.

B E L G I S I	N O M L A N I S H I	M A S S A S I	Z A R Y A D I
$^4_2\alpha$	Alfa	4 g	+2
$^0_{-1}\beta$	Betta	0 g	-1
$^1_1\text{P}$	Proton	1 g	+1
$^2_1\text{D}$	Deyteriy	2 g	+1
$^3_1\text{T}$	Tritiy	3 g	+1
$^1_0\text{n}$	Neytron	1 g	0
$^0_{-1}\bar{e}$	Elektron	0 g	-1
$^0_{+1}\beta$	Pozitron	0 g	+1
$^0_0\gamma$	Gamma	0 g	0

## KIMYOVİY BOĞ'LANISH JADVALI


N o	Bog'lanish turi	Hosil bo'ladi	Misollar	Bog'lanish energiyasi
1	Qutbsiz kovalent	elektromanfiylik qiymatlari teng yoki biroz farq qiladigan elementlar orasida (0 dan 0,4 gacha) Metalmas + metalmas	F <sub>2</sub> , Cl <sub>2</sub> , Br <sub>2</sub> , J <sub>2</sub> , H <sub>2</sub> , O <sub>2</sub> , N <sub>2</sub> , O <sub>3</sub> , P <sub>4</sub> , S <sub>8</sub> , PH <sub>3</sub> , CS <sub>2</sub> , CH <sub>3</sub> SH, NCl <sub>3</sub> , peroksidlar – H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> , barcha organik birikmalardagi C – C bog'i.	Mustahkam
2	Qutbli kovalent	elektromanfiylik qiymatlari farq qiladigan elementlar orasida (0,4 dan 1,8 gacha) Metalmas + metalmas	H <sub>2</sub> O, HCl, HBr, HJ, NH <sub>3</sub> , H <sub>2</sub> S, H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , SF <sub>6</sub> , SO <sub>2</sub> , SO <sub>3</sub> , N <sub>2</sub> H <sub>4</sub> , PCl <sub>5</sub> , PCl <sub>3</sub> , PH <sub>3</sub> , SiCl <sub>4</sub> , kislotalar, azot, fosfor va uglerod oksidlari.	Mustahkam
3	Ion	Elektromanfiylik qiymati keskin farq qiladi. (1,8 dan katta.) Metall + metalmas	MeO, MeOH, MeH, tuzlar KCl, NaJ, CsF, BaCl <sub>2</sub> , Li <sub>2</sub> S, CaCl <sub>2</sub> , BeSO <sub>4</sub> , Zn(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> I guruh metallari va VII guruh metalmaslari hosil qilgan birikmalarda yaqqolroq namoyon bo'ladi	Mustahkam
4	Metall	Faqat metallar orasida Metall + metall	Barcha metallar va metall qotishmalari Al, Cu, Fe, Au, Ag va h.k.	Mustahkam
5	Donor- akseptor yoki Koordin- sion bog'lanish	—	CO, N <sub>2</sub> O <sub>5</sub> , PH <sub>4</sub> Cl, H <sub>3</sub> O <sup>+</sup> , DNK, RNK, N <sub>2</sub> O, N <sub>2</sub> H <sub>5</sub> Cl, Kompleks birikmalar, kristallogidratlar, NH <sub>4</sub> <sup>+</sup> ioni va uning tuzlari, HNO <sub>3</sub> va uning tuzlari, kislota eritmalar	Mustahkam
6	Vodorod	Ichki molekulyar: Bir molekula ichidagi funksional guruqlar orasida vujudga keladi.	Ikki va uch atomli spirtlar, ko'p atomli spirtlar, salitsil kislota, o-nitrofenol, o-xlorfenol, pirokatexin, DNK, RNK, oqsillar aminokislotalar.	Oddiy kovalent bog'dan 10 marta zaif
		Molekulalararo: Molekulalar orasida vujudga keladi. Bir hil molekulalar gomoassotsiatlar, turli xil molekulalar esa geteroassotsiatlar hosil qiladi.	H <sub>2</sub> O, DNK, amidlar, nuklein kislotalar, aminokislotalar, bir atomli spirtlar, organik kislotalar, glukoza, suyuq holatdagi: HBr, H <sub>2</sub> S, NH <sub>3</sub> , HF, HCl	

## KIMYOVIY KINETIKA. (I-QISM)

### KIMYOVIY REAKSIYA TEZLIGI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.

**Kinetika** – kimyoviy jarayonlarning tezligi, mexanizmlari va unga tasir etuvchi omillarni o‘rganadi.

**Kimyoviy reaksiya tezligi** – kimyoviy reaksiyada ishtirok etayotgan modda(lar) konsentratsiyasini vaqt birligi ichida o‘zgarishi kimyoviy reaksiya tezligi deyiladi.



**Masalan;** kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan moddaning dastlabki konsentratsiyasi 1 mol/l ga teng. Reaksiya 10 sekund davom etgandan so‘ng ushbu moddani konsentratsiyasi 0,4 mol/l ga teng bo‘lsa, reaksiya tezligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanib topamiz.

Bu yerda;

$$v = \frac{C_1 - C_2}{t_1 - t_2} = \frac{\Delta C}{\Delta t}$$

$C_1$  – moddani dastlabki konsentratsiyasi  
 $C_2$  – reaksiyadan keyingi konsentratsiyasi  
 $t_1$  va  $t_2$  dastlabki va reaksiyadan keyingi vaqt

$$v = \frac{1 - 0,4}{10 \text{ sek}} = \frac{0,6}{10} = 0,06 \text{ mol/l*sek}$$



Demak shu raksiyani tezligi 0,06 mol/l ga teng ekan.

**Kimyoviy reaksiya tezligiga tasir etuvchi omillar** – kimyoviy reaksiya tezligiga quyidagi omillar tasir etadi.

- reaksiyaga kirishayotgan ddalar tabiatiga
- reaksiyada ishtirok etuvchi moddalarning konsentratsiyasiga
- temperaturaga
- gazlarda bo‘ladigan reaksiyada – bosimga
- qattiq moddalarning reaksiyalarida – maydalanganlik darajasiga
- radioaktiv nur tasiriga.
- katalizatorlarning ishtirok etishiga;

## **1. Reaksiya tezligining kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi moddalar tabiatiga bog'liqligi.**

Tasirlashayotgan moddalar qancha bir-biriga moyil bo'lsa va yangi kimyoviy moddalar hosil bo'lishi bilan tugaydigan to'qnashishlar foizi qancha ko'p bo'lsa, reaksiya tezligi katta bo'ladi.



Birinchi reaksiya  $200^{\circ}C$  da ham portlash bilan borsa, ikkinchisi esa qizdirilganda ham sekin boradi. Bunga sabab vodorodning ftorga nisbatan kimyoviy moyilligi bromga qaraganda kattaligida (ftorning NEM bromnikiga nisbatan yuqori).

## **2. Reaksiya tezligining konsentratsiyaga bog'liqligi**

A va B moddalar o'zaro kimyoviy reaksiyaga kirishish uchun ularning molekulalari bir-biri bilan to'qnashishi kerak. To'qnashuvtar qancha ko'p bo'lsa, reaksiya shuncha tez ketadi. Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, to'qnashuvtar soni ko'p bo'ladi. Kimyoviy reaksiya tezligiga konsentratsiyani tasirini **1867-yil norvegiyalik olimlar; K.MGuldberg va P.Vagelar** tomonidan kimyoviy kinetikaning asosiy qonuni **massalar tasiri qonuni kashf etildi**.


Bu qonunga ko'ra: **kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasiga proporsional va reaksiya tenglamasidagi modda formulasi oldidagi koefitsent konsentratsiya darajasiga bog'liq.**

**Masalan;**  $NH_3$  ni hosil bo'lish reaksiyasi uchun to'g'ri va teskari reaksiya tezliklari quyidagicha ifodalanadi.



Bu formulalarda  $[N_2]$   $[H_2]$  va  $[NH_3]$  lar tegishlicha  $N_2$  va  $NH_3$  larning molyar konsentratsiyalari;  $k_1$  va  $k_2$  lar proporsionallik koefitsentlari bo'lib, **reaksiyaning tezlik doimiysi** deb ataladi.

Tezlik doimiysi reaksiyada qatnashuvchi moddalar tabiatiga, temperaturaga, katalizatorning bor-yo'qligiga bog'liq, lekin konsentratsiyaga bog'liq bo'lmaydi. Agar reaksiyaga kirishayotgan moddalardan biri qattiq holatda bo'lsa, masalan, uglerodning yonishi:



Bu reaksiya tezligi faqat kislorod konsentratsiyasiga bog'liq.  $v = k[O_2]$

## 1. Reaksiya tezligiga temperaturaning ta'siri

### 2.

Temperatura ortishi bilan reaksiya tezligi ortadi. Reaksiya tezligiga temperaturaning ta'sirini o'rganish natijasida **Vant-Goff** quyidagi qonunni kashf etdi: **temperatura har  $10^{\circ}\text{C}$  ga oshganda reaksiyaning tezligi 2—4 marta ortib boradi**. Demak, temperatura  $10^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiyaning tezligi kamida 1000 marta oshadi. Temperatura o'zgarganda, reaksiya tezligini quyidagi tenglama yordamida hisoblash mumkin:

$$v_{t_2} = v_{t_1} \cdot \gamma \frac{t_2 - t_1}{10}$$

bunda,

$v_{t_2}$  — reaksiyaning  $t_2^{\circ}$  temperaturadagi tezligi,

$v_{t_1}$  — reaksiyaning  $t_1^{\circ}$  temperaturadagi tezligi,

$\gamma$  — temperatura  $10^{\circ}$  ko'tarilganda reaksiyaning tezligi necha marta ortganligini ko'rsatuvchi son (ya'ni, reaksiya tezligining temperatura koeffitsiyenti).


**Masalan:** Agar reaksiyaning xarorat koeffitsiyenti 4 ga teng bo'lsa, xarorat  $10^{\circ}$  dan  $50^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiya tezligi necha marta ortadi?

### 50-10

$$V_{50} = V_{10} \cdot 4 \frac{50 - 10}{10} = 256 \text{ marta}$$

Reaksiyaga kirishayotgan moddalaming molekulalarini (zarrachalarini) aktiv molekulalariga aylantirish uchun ularga berish kerak bo'lган **energiya aktivlash energiyasi** deyiladi. Agar aktivlash energiyasi kam bo'lsa, reaksiya borayotganda ma'lum vaqt oralig'ida energetik g'ovni ko'p sonli zarrachalar yengib o'tadi va reaksiyaning tezligi yuqori bo'ladi. Lekin aktivlashgan eneigiya katta bo'lsa, reaksiya ekin ketadi.

## 4. Bosimning ta'siri – bosim ortsa reaksiya tezligi ortadi



## KATALIZ VA KATALIZATOR

Biror kimyoviy reaksiyada ishtirok etib, uning tezligini o'zgartiruvchi, o'zi esa reaksiya oxirida kimyoviy jihatdan o'zgarmay qoladigan moddalar **katalizatorlar** deb ataladi. katalizator ishtirokida boradigan reaksiyalar **katalitik reaksiyalar** deb ataladi.

**Kataliz** – kimyoviy reaksiya tezligining katalizator ishtirokida o'zgarishidir.

**Musbat kataliz** – reaksiyani juda tezlashtirib yuboradi. M;  $H_2SO_4$  ni olinishi, ammiakni platina katalizator ishtirokida oksidlanib, NO ga aylanishi misol bo'ladi.

**Manfiy kataliz** – reaksiyani sekinlashtiradi. M;  $Na_2S$  eritmasi bilan havo kislорodining o'zaro tasir reaksiyaning etil spirit ishtirokida sekinlashishi yoki vodorod peroksid parchalanish tezligining oz miqdordagi sulfat kislota ishtirokida kamayishi va boshqalar misol bo'ladi. Manfiy kataliz ko'pincha **ingibratorlash**, reaksiya tezligini kamaytiruvchi manfiy katalizatorlar **ingibratorlar** deyiladi.

Kataliz ikki turga bo'linadi, **gomogen va geterogen**.

### Gomogen katalizda

reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizatorlar bir fazali sistemani hosil qiladi, katalizator bilan reaksiyaga kirishuvchi moddalar orasida chegara sirti bo'lmaydi.

**Geterogen katalizda** reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan katalizator turli fazalardan iborat sistemani hosil qiladi. bunda reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan katalizator orasida chegara sirti bo'ladi. Katalizator – qattiq, reaksiyaga kirishuvchi moddalar – gazlar yoki suyuqliklar bo'ladi.

**Biologik katalizatorlar – fermentlar** alohida ahamiyatga ega. O'simlik va hayvon azolaridagi murakkab kimyoviy jarayonlar meda-ichak sistemasida, qonda va hujayralarda kechadigan ko'pgina kimyoviy reaksiyalar katalitik reaksiyalardir. Bu jarayonlar maxsus moddalar – fermentlar tasirida boradi. **Fermentlar (enzimlar)** – biologik sistemalardagi kimyoviy reaksiyalarning tezligini o'zgartiruvchi oqsil tabiatiga ega bo'lgan moddalar.


## QAYTMAS REAKSIYALAR

Faqat reaksiya mahsulotlari xosil bo'lishi yo'nalishida boruvchi reaksiyalar qaytmas reaksiyalar deyiladi.


**Misol:**  $2 KClO_3 \rightarrow 2 KCl + 3O_2$

Reaksiya mahsulotlaridan biri reaksiya muhitidan chiqib ketadi:

I. a) cho'kmaga tushsa:



**b) gaz ajralib chiqsa.**



**II. Kam dissosilanadigan modda hosil bo'lsa.**



**III. Reaksiya vaqtida ko'p issiqlik ajralsa:**




### **KIMYOVİY MUVOZANAT. (II-QISMADA)**

$$\frac{[C]^c[D]^d}{[A]^a[B]^b} = \frac{K_1}{K_2} = K_m$$

### **KIMYOVİY MUVOZANAT (REAKSIYA MEXANİZMI) QAYTAR REAKSIYALAR**

Dastlabki moddalar reaksiyaga kirishganda ularning konsentratsiyalari kamayadi va reaksiya tezligi sekinlashadi.

Dastlabki moddalardan qancha sarflansa reaksiyadan keyin shuncha mahsulot hosil bo'ladi.



Bu reaksiyada to'gri reaksiya tezligi  $H_2$  va  $J_2$  ning konsentratsiyalariga bog'liq. O'nga boradigan reaksiya to'g'ri reaksiya deyiladi

$$V_1 = K_1 \cdot [H_2]^1 \cdot [J_2]^1 \quad \text{to'g'ri reaksiya tezligi}$$


Teskari reaksiya tezligi  $[HJ]$  ning konsentratsiyalariga bo'g'liq. Chapga boradigan reaksiya tezligi teskari reaksiya tezligi deyiladi.

$$V_2 = K_2 \cdot [HJ]^2 \quad \text{teskari reaksiya tezligi}$$

Bu reaksiyada vodorod va yoddan vodorod yodid hosil bo'ladi. Ammo teskari reaksiya tezligi nolga teng bo'ladi, chunki hali  $HJ$  hosil bo'lgani yo'q.

Vaqt o'tishi bilan vodorod va yod miqdori kamayadi.  $HJ$  ning miqdori ortadi va teskari reaksiya tezligi ham ortib boradi.  $H_2$  va  $J_2$  ning konsentratsiyasi kamaygan sari to'g'ri reaksiya tezligi kamayadi va nihoyat ma'lum bir vaqtdan keyin ikkala reaksiya tezliklari tenglashadi va shu tenglashganda hosil bo'lgan holat **kimyoviy muvozanat** deyiladi.

Dastlabki maxsulotlardan qancha sarflansa shuncha mahsulot hosil bo‘ladi. Shuning uchun ham kimyoviy muvozanat **Dinamik** (harakatdagi) muvozanat deb ataladi.



$$V_{to'g'ri} = K_1 \cdot [H_2] \cdot [J_2]$$

$$V_{tesk} = K_2 \cdot [HJ]^2$$

$$V_{to'g'ri} = V_{teskyoki} K_1 \cdot [H_2] \cdot [J_2] = K_2 \cdot [HJ]^2$$

## KIMYOVİY MUVOZANAT KONSTANTASI

Kimyoviy muvozanat paytida hosil bo‘lgan maxsulotlar konsentratsiyalar ko‘paytmalari yig‘indisini dastlabki maxsulotlar konsentratsiyalari ko‘paytmalari yig‘indisiga nisbati **kimyoviy muvozanat konstantasi** deyiladi.



$$V_{to'g'ri} = K_1 \cdot [A]^a \cdot [B]^b$$


$$V_{tesk} = K_2 \cdot [C]^c \cdot [D]^d$$

$$\frac{[C]^c [D]^d}{[A]^a [B]^b} = \frac{K_1}{K_2} = K_m$$

Bu yerda;  $K_m$  – kimyoviy muvozanat konstantasi va bu – temperatura va modda tabiatiga bog‘liq, konsentratsiyaga bog‘liq emas.

**Endotermik reaksiyalar uchun temperatura ortsa  $K_m$  kattalashadi. Ekzotermik reaksiyalarda aksincha kamayadi.  $K_m$  qancha katta bo‘lsa, maxsulot unumi yuqori bo‘ladi.**

Geterogen reaksiyalarda qattiq moddalar konsentratsiyasi muvozanat konstantasini o‘zgarishiga tasir etmaydi



$$K_M = \frac{[CO]^2}{[CO_2]}$$


## KIMYOVİY MUVOZANAT SILJISHI. LE SHATELYE PRINSIPI

Har qanday muvozanat holatdagi sistemaga tashqi omillar (reaksiyada qatnashuvchi moddalar konsentratsiyasi, gazlar uchun bosim, temperatura) tasir natijasida muvozanatni o‘zgartirish mumkin.

Muvozanat siljishini 1884-yilda Le-Shatelye tariflagan.

**Le-Shatelye prinsipi** – Muvozanat holatda turgan sistemaga biror tashqi tasir o‘tkazilsa (reaksiyada qatnashuvchi moddalar konsentratsiyasi, gazlar uchun bosim, temperatura) muvozanat shu tasirni kamaytiruvchi tomonga siljiydi.

**1) KONSENTRATSIYANING TASIRI.** Agar boshlang‘ich moddalardan birining konsentratsiyasi ortsa,muvozanat shu tasirni kamaytiruvchi yani o‘ng tomonga siljiydi.



Muvozanatda turgan sistemaga  $CO_2$  bersak sistema  $CO_2$  konsentratsiyasini kamaytirishga intiladi yani kimyoviy muvozanat o‘ng tominga siljiydi, aksincha agar  $CO_2$  miqdorini kamaytirsak,sistema uni ko‘paytirishga intiladi yani muvozanat chap tarafga siljiydi.

Xullas – reaksiyada qaysi tarafga modda qo‘silsa muvozanat uning qarama-qarshisiga,qaysi tarafdan chiqarib turilsa kimyoviy muvozanat shu tominga siljiydi.

**2) BOSIM TASIRI.** Gazsimon moddalar ishtirok etadigan va umuman hajm o‘zgaradigan muvozanat sistemalarda kimyoviy muvozanat bosim o‘zgarishi bilan siljiydi.

Bosim ortsa modda miqdori kam tarafga siljiydi

Bosim kamaysa modda miqdori ko‘p tarafga siljiydi.



22,4 l      67,2 l      44,8 l

89,6 l = 44,8 l

Bu reaksiyada kimyoviy muvozanat o‘ng tarafga siljiydi.

### 3) TEMPERATURA TASIRI.

a) ekzotermik reaksiyalar uchun temperatura ortsa muvozanat chap tarafga, kamaysa muvozanat o‘ng tarafga siljitadi.  $2SO_2 + O_2 = 2SO_3 + Q$

1) t °C ortsa muvozanat – chapga

2) t °C kamaysa muvozanat – o‘nga siljiydi.

b) endotermik reaksiyalar uchun temperatura ortsa muvozanat o‘ng tarafga siljiydi, kamaysa chap tarafga siljiydi.  $NO_2 = N_2O_4 - Q$

1) t °C ortsa muvozanat – o‘nga

2) t °C kamaysa muvozanat – chapga siljiydi.

**4) Katalizator** – kimyoviy muvozanatni o‘nga yoki chapga siljitmaydi, balki muvozanatni qaror topishini tezlashtiradi.

## DIQQAT QILING !

Shu reaksiyada  $CH_4 + H_2 \leftrightarrow CO + 3H_2 + Q$

**a) Kimyoviy muvozanatni o‘ng tomonga siljитish uchun**

1)  $CH_4$  va  $H_2O$  ning konsentratsiyalarini oshirish kerak

2) CO va  $H_2$  ning konsentratsiyasini kamaytirish kerak

3) Temperaturani kamaytirish kerak;

4) Bosimni kamaytirish kerak

**b) Kimyoviy muvozanatni chap tomonga siljитish uchun**

1)  $CH_4$  va  $H_2O$  ning konsentratsiyalarini kamytirish kerak

2) CO va  $H_2$  ning konsentratsiyasini oshirish kerak

3) Temperaturani ko‘tarish kerak

4) Bosimni orttirish kerak

## ERITMALAR FORMULALAR

<b>1) Massa ulushni topish ;</b> $\omega = \frac{\text{erigan modda massasi}}{\text{umumiy eritma massasi}}$
<b>2) Hajmiy ulushni topish;</b> $\phi = \frac{\text{erigan modda hajmini}}{\text{umumiy eritma hajmiga}}$
<b>3) Foiz konsentratsiya;</b> 1) $C\% = \frac{\text{erigan modda massasi}}{\text{umumiy eritma massasi}} * 100$
2) $m_1 = \frac{\text{umumiy eritma massasi} \cdot C\%}{100};$ 3) $m_2 = \frac{\text{erigan modda massasi} \cdot 100}{C\%}$
<b>4) Hajmga doir;</b> 1) $V = \frac{m}{p};$ 2) $m = V \cdot p;$ 3) $p = \frac{m}{V}$ $p$ – eritma zichligi (g/ml)
<b>5) Foizga doir;</b> 1) $C\% = \frac{m \cdot 100}{V \cdot p};$ 2) $p = \frac{m \cdot 100}{V \cdot C\%};$ 3) $V = \frac{m \cdot 100}{p \cdot C\%};$ 4) $m = \frac{V \cdot p \cdot C\%}{100}$
<b>5) Molyar konsentratsiyaga doir;</b> 1) $C_m = \frac{n \cdot 1000}{V};$ 2) $n = \frac{C_m \cdot V}{1000};$ 3) $V = \frac{n \cdot 1000}{C_m};$
4) $C_m = \frac{m \cdot 1000}{M_r \cdot V};$ 5) $m = \frac{C_m \cdot M_r \cdot V}{1000};$ 6) $M_r = \frac{m \cdot 1000}{C_m \cdot V};$ 7) $V = \frac{m \cdot 1000}{M_r \cdot V};$ 8) $C_m = \frac{m \cdot 1000}{C_m \cdot V_1 + C_m \cdot V_2} \cdot \frac{V_1 + V_2}{V_1 + V_2}$
<b>6) Normal konsentratsiyaga doir;</b> 1) $C_n = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot V};$ 2) $m = \frac{C_n \cdot E \cdot V}{1000};$ 3) $E = \frac{m \cdot 1000}{C_n \cdot V};$
4) $V = \frac{m \cdot 1000}{C_n \cdot E};$
<b>7) Molyal konsentratsiyaga doir;</b> $C_m = \frac{n}{V} \cdot 1000$
<b>8) Titr konsentratsiyaga doir;</b> 1) $T = \frac{m}{V};$ 2) $T = \frac{C\% \cdot p}{100};$ 3) $T = \frac{C_n \cdot E}{1000};$ 4) $T = \frac{C_m \cdot M_r}{1000}$
<b>9) C% ni Cm ga bog'liqlik formulasi;</b> 1) $C_m = \frac{C\% \cdot p \cdot 10}{M_r};$ 2) $M_r = \frac{C\% \cdot p \cdot 10}{C_m};$
3) $C\% = \frac{C_m \cdot M_r}{p \cdot 10};$
4) $P = \frac{C_m \cdot M_r}{C\% \cdot 10}$
<b>10) C% ni Cn ga bog'liqlik formulasi;</b> 1) $C_n = \frac{C\% \cdot p \cdot 10}{E};$ 2) $C\% = \frac{C_n \cdot E}{p \cdot 10};$ 3) $E = \frac{C\% \cdot p \cdot 10}{C_n};$

## DISPERS SISTEMALAR VA ULARNING SINFLANISHI

### 1- Dag`al dispers sistemalar

Bu sistemalar tarkibida o‘lchami 100 nm dan katta bo‘lgan zarrachalar tutgan bo‘lib, ularni oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin. Bunday sistemalarga suspenziya va emulsiyalar misol bo‘ladi.

Suspenziyalar deb, suyuq dispers muhitda qattiq dispers faza tarqalishidan hosil bo‘lgan sistemalarga aytildi.

Emulsiyalar deb, ikkita o‘zaro aralashmaydigan suyuqliklardan hosil bo‘lgan sistemalarga aytildi. Bunday sistemalarni **geterogen** dispers sistemalar deyiladi.

## 2-Kolloid dispers sistemalar

Bunday sistemalarga tarkibida 1 nm dan 100 nm gacha kattalikdagı zarrachalar tutgan sistemalarga aytildi.

Bunday eritmalar ma'lum termodinamik barqarorlikka ega bo'lib, tashqi ko'rinishdan chin eritmalariga o'xshaydi. Bunday sistemalarni mikroeterogen dispers sistemalar deb nomlanadi. Ularning fizik – kimyoviy xossalari kolloid kimyo fani o'rganadi.

### 3- Molekulyar – ion dispers sistemalar

Bu sistemalar boshqacha qilib chin eritmalar deyiladi. Ularning o'lchami 1 nm dan kichik bo'ladi. Tuzlar, qand va boshqa moddalar eritmasi chin eritmalaridir. Bunday sistemalar **gomogen** sistemalar degan umumiy nom bilan ataladi.

**Chin eritmalar** – erituvchi tarkibidagi erigan modda zarrachalarini hatto ultramikroskop yordami bilan ham ko'rib bo'lmaydigan eritmalaǵa aytildi.

**Kolloid eritmalar** – erituvchi tarkibidagi erigan modda zarrachalarini faqat ultramikroskop yordami bilan ko'rish mumkin bo'lgan eritmalaǵa aytildi.

Turi	Zarrachalar o'lchami	Turi	Dispers muhit	Dispers faza	Misollar
Dag'äl dispers sistemalar	100 nm dan katta	Suspenziya	Suyuq	Qattiq	Loy bilan suv aralashmasi, nam tuproq
		Emulsiya	Suyuq	Suyuq	Sut,saryog‘, margarin,moyanez
		Ko'pik	Suyuq	Gaz	Ko'piklar, o't o'chirgichlar
			Qattiq	Gaz	Penoplast,penobeton, pemza shlak,non,patir
			Qattiq	qattiq	Qotishmalar,sement, beton,rangli shisha, emallar,
Kolloid (zollareritmalar)	1-100 nm oralig'ida	Aerozollar	Gaz	Suyuq	Tuman
		Liazollar	Suyuq		
		Gidrazollar	Suv		
		Tutun	Gaz	Qattiq	Tutun,chang
Chin eritmalar	1 nm dan kichik	Molekulyar (noelektrolit)		Elektrolitm as moddalar	Shakarni suvdagi eritmasi
		Ionli (elektrolitlar)		Elektrolit moddalar	NaCl suvdagi eritmasi

	H <sup>+</sup>	NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	K <sup>+</sup>	Na <sup>+</sup>	Ag <sup>+</sup>	Hg <sup>+</sup>	2+ Hg	2+ Ba	2+ Ca	2+ Mg	2+ Zn	2+ Mn	2+ Sn	2+ Pb	2+ Cu	2+ Fc	3+ Fe	3+ Al	3+ Cr	3+ Bi
OH <sup>-</sup>	+	E	E	E	+	+	+	E	O	O	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
F <sup>-</sup>	E	E	E	E	E	Q	O	O	Q	O	O	E	Q	E	Q	Q	O	Q	Q	Q
Cl <sup>-</sup>	E	E	E	E	Q	Q	E	E	E	E	E	E	E	O	E	E	E	E	+	+
Br <sup>-</sup>	E	E	E	E	Q	Q	O	E	E	E	E	E	E	O	E	E	E	E	E	+
I <sup>-</sup>	E	E	E	E	Q	Q	Q	E	E	E	E	E	O	Q	+	E	+	E	E	+
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	+	E	E	E	E	E	E	E
S <sup>2-</sup>	E	+	E	E	Q	Q	Q	E	O	E	Q	Q	Q	Q	Q	Q	+	+	+	Q
SO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>	E	+	E	E	O	Q	Q	O	O	Q	O	Q	+	Q	Q	O	+	+	+	Q
SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	E	E	E	O	O	E	Q	O	E	E	E	E	O	E	E	E	E	E	E	E
CO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>	E	+	E	E	O	Q	Q	Q	O	O	Q	Q	+	Q	Q	Q	Q	+	+	Q
SiO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>	Q	+	E	E	Q	+	+	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	+	Q	+	+	Q
PO <sub>4</sub> <sup>3-</sup>	E	e	E	E	Q	Q	Q	Q	O	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
HCOO <sup>-</sup>	E	E	E	E	O	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E
CH <sub>3</sub> COO <sup>-</sup>	E	+	E	E	E	O	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E
C <sub>17</sub> H <sub>35</sub> COO <sup>-</sup>	E	E	E	E	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q

Berilgan konsentratsiya → Topiladigan kosentratsiya↓	Foiz (%)	Molyar (M)	Normal (N)	Molyal (m)	Titr (g/ml)
Foiz (%)	$C\% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100\%$	$C\% = \frac{C_M \cdot M}{\rho \cdot 10}$	$C\% = \frac{C_N \cdot E}{\rho \cdot 10}$	$C\% = \frac{C_m \cdot M \cdot 1000}{C_m \cdot M + 1000}$	$C\% = \frac{t \cdot 100\%}{\rho}$
Molyar (M)	$C_M = \frac{C\% \cdot 10 \cdot \rho}{M}$	$C_M = \frac{n}{V}$	$C_M = \frac{C_N \cdot E}{\rho}$	$C_M = \frac{C_m \cdot \rho \cdot 1000}{1000 + C_m \cdot M}$	$C_M = \frac{1000 \cdot t}{M}$
Normal (N)	$C_N = \frac{C\% \cdot 10 \cdot \rho}{E}$	$C_N = \frac{C_M \cdot M}{E}$	$C_N = \frac{n_{ekv}}{V_{eritma}}$	$C_N = \frac{C_m \cdot \rho \cdot 1000}{1000 + C_m \cdot E}$	$C_N = \frac{1000 \cdot t}{E}$
Molyal (m)(suvlı entma)	$C_m = \frac{C\%}{M(100 - C\%)} \cdot \frac{1000}{1000}$	$C_m = \frac{C_M \cdot 1000}{1000 \cdot \rho - C_M \cdot M}$	$C_m = \frac{C_N \cdot 1000}{1000 \cdot \rho - C_N \cdot E}$	$C_m = \frac{n \cdot 1000}{V_{eritma}}$	$C_m = \frac{t \cdot 1000}{(\rho - t) \cdot M}$
Titr (g/ml)	$t = \frac{C\% \cdot \rho}{100}$	$t = \frac{C_M \cdot M}{1000}$	$t = \frac{C_N \cdot E}{1000}$	$t = \frac{C_m \cdot M}{1000 + C_m \cdot M} \rho$	$t = \frac{m}{V}$
	$\rho = \frac{m_2}{V}$ Zichlikni topish	Ekivalent mol. $n_{ekv} = \frac{m}{E}$	Foiz va molar berilsa zichlik topish $\rho = \frac{C_M \cdot M}{C\% \cdot 10}$	Foiz va molar berilsa moddani topish $M = \frac{C\% \cdot 10 \cdot \rho}{C_M}$	Foiz va normal berilsa moddani

**Li, K, Ca, Na, Mg, Al, Mn, Zn, Fe, Cd, Co, Ni, Sn, Pb [H] Cu, Ag, Hg, Au**

## TUZLARNING GIDROLIZI


Tuz ionlari bilan suv molekulalari orasida bo'ladigan va odatda kuchsiz elektrolit (kuchsiz kislota, kuchsiz asos va asosli yoki kislotali tuz) hosil bo'lishiga olib keladigan o'zaro ta'sirlashuv gidroliz deb ataladi.

### GIDROLIZNING BORISHI

**1. Kuchli asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar (masalan, NaCl) gidrolizlanmaydi.**



**2. Kuchli asos va KUCHSIZ KISLOTADAN hosil bo'lgan tuz gidrolizlanganda eritma ishqoriy muhitni ko'rsatadi,** masalan:



**3. KUCHSIZ ASOS va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda eritma kislotali muhitni ko'rsatadi,** masalan:



**4. KUCHSIZ ASOS va KUCHSIZ KISLOTAdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda kuchsiz asos va kuchsiz kislota hosil bo'ladi,** masalan:



### TUZLAR GIDROLIZI JADVALI

TARKIBI	MISOL YOZING	GIDROLIZ	MUHIT	LAKMUS	FENOLFT ALEIN	R-YA BORISHI	KUCHAY TIRISH
Kuchli asos Kuchli k-ta		bormaydi	neytral	rangsiz	rangsiz	-----	-----
Kuchsiz asos Kuchli k-ta		qaytar	kislotali	qizil	rangsiz	Kation bo'yicha	H <sub>2</sub> O, ishqor qizdirish
Kuchsiz k-ta Kuchli asos		qaytar	ishqoriy	ko'k	pushti	Anion bo'yicha	H <sub>2</sub> O, kislota qizdirish
Kuchsiz asos Kuchsiz k-ta		Qaytmas To'liq Oxirigacha	neytral	rangsiz	rangsiz	ham kation ham anion	-----

## GIDROLIZ DARAJASI

Gidrolizlangan tuz molekulalari sonining eritilgan tuz molekulalari soniga bo‘lgan nisbati tuzning gidrolizlanish darajasi deb ataladi va  $h$  bilan belgilanadi:

$$h = \frac{\text{gidrolizlangan molekulalar soni}}{\text{eritilgan tuz molekulalari soni}}$$

### ORGANIK MODDALARDAN GIDROLIZGA UCHRAYDIGANLARI

- |                       |                     |
|-----------------------|---------------------|
| 1) DNK;               | 2) RNK;             |
| 3) Oqsillar;          | 4) nukleozid        |
| 5) nukleotit;         | 6) nuklein kislota; |
| 7) Disaxaridlar       | 8) Polisaxaridlar   |
| 9) kraxmal;           | 10) selluloza;      |
| 11) Murakkab efirlar; | 12) Oddiy efirlar;  |
| 13) metilmekrifikat;  |                     |

### KISLOTALAR

Kuchli kislotalar			Kuchsiz kislotalar		
1.	HClO <sub>4</sub>	Perxlorat	1.	HNO <sub>2</sub>	Nitrit
2.	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	Sulfat	2.	H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	Ortofosfat
3.	HNO <sub>3</sub>	Nitrat	3.	H <sub>3</sub> PO <sub>3</sub>	Fosfit
4.	HMnO <sub>4</sub>	Permanganat	4.	H <sub>4</sub> P <sub>2</sub> O <sub>7</sub>	Pirofosfat
5.	H <sub>2</sub> MnO <sub>4</sub>	Manganat	5.	H <sub>2</sub> SO <sub>3</sub>	Sulfit
6.	HClO <sub>3</sub>	Xlorat	6.	H <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	Karbonat
7.	H <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> O <sub>7</sub>	Dixromat	7.	HPO <sub>3</sub>	Metafosfat
8.	HJ	Yodid	8.	H <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub>	Silikat
9.	HBr	Bromid	9.	HClO <sub>2</sub>	Xlorit
10.	HCl	Xlorid	10.	HClO	Gipoxlorit
11.	H <sub>2</sub> CrO <sub>4</sub>	Xromat	11.	H <sub>3</sub> AsO <sub>4</sub>	Arsenat

		<b>12.</b>	H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub>	Ortoborat
		<b>13.</b>	H <sub>2</sub> SeO <sub>4</sub>	Selenat
		<b>14.</b>	H <sub>2</sub> SeO <sub>3</sub>	Selenit
		<b>15.</b>	HF	Ftorid
		<b>16.</b>	H <sub>2</sub> S	Sulfid
		<b>17.</b>	H <sub>2</sub> Se	Selenid
		<b>18.</b>	HCN	Sianid
		<b>19.</b>	HO CN	Sianat
		<b>20.</b>	HSCN	Rodanid
		<b>21.</b>	H <sub>3</sub> PO <sub>2</sub>	Gipofosfit
		<b>22.</b>	H <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Tiosulfat
		<b>23.</b>	HCOOH	Chumoli kislota
		<b>24.</b>	CH <sub>3</sub> COOH	Sirka kislota

ASOSLAR	
Asoslar	Misollar
KUCHLI	LiOH, NaOH, KOH, RbOH, FrOH, Ca(OH) <sub>2</sub> , Ba(OH) <sub>2</sub> , Sr(OH) <sub>2</sub> ,
KUCHSIZ	NH <sub>4</sub> OH, Be(OH) <sub>2</sub> , Zn(OH) <sub>2</sub> , Cr(OH) <sub>3</sub> , Al(OH) <sub>3</sub> , Fe(OH) <sub>3</sub> , va boshqalar

## GAZLARGA OID QONUNLAR

<b>Mol ulush.</b>	Aralashmadagi bir modda miqdorining aralashma miqdoriga nisbati.
<b>Hajmiy ulush.</b>	Aralashmadagi bir gaz hajmining aralashma hajmiga nisbati. Gazlarda mol ulush hajmiy ulushga teng.
<b>Mol ulush.</b>	Mol ulush -Hajmiy ulushga teng.
<b>Gazlar aralashmasining o‘rtacha massasi</b>	Aralashma tarkibidagi gazlarning massalari yig‘indisini shu gazlarning aralashmadagi mol miqdorlari yig‘indisiga nisbati.
<b>Parsial bosim</b>	Aralashmadagi gazning xususiy bosimi yoki bosim ulushi.  Umumiy bosim aralashmadagi barcha gazlarning parsial bosimlari yig‘indisiga teng bo‘ladi

<b>1</b>	Hajmiy nisbatlar qonuni.	Reaksiyaga kirishayotgan gazlarning hajmi va hosil bo‘layotgan gazlarning hajmlari bir-biriga o‘zaro kichik butun sonlar nisbatida bo‘ladi. Gey-Lyussak tomonidan kashf etilgan.
<b>2</b>	Avogadro qonuni.	Bir xil sharoitda (bir xil harorat va bir xil bosim) turli gazlarning teng hajmlarida molekulalar soni bir xil bo‘ladi.  1811 – yilda A. Avogadro tomonidan kashf qilindi.
<b>3</b>	Avogadro qonunidan kelib chiqadigan xulosalar.	a) Bir xil sharoitda (bir xil harorat va bir xil bosim) turli gazlarning bir xil miqdori teng hajmlarni egallaydi. b) N. sh. ( $T=273,15\text{ K}$ , $t=0^\circ\text{C}$ , $P=1\text{ atm}$ , $760\text{ mm.sim.ust.}$ yoki $101,325\text{ kPa}$ ) da har qanday gazning bir moli $22,4\text{ litr hajmni}$ egallaydi.
<b>4</b>	Birlashgan gaz qonuni.	$\frac{P_1 V_1}{T_1} = \frac{P_0 V_0}{T_0}$ bu yerda $P_0$ , $V_0$ , $T_0$ – n.sh. dagi bosim, hajm va harorat.
<b>5</b>	Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi (ideal gazlar uchun).	$PV = nRT$ . Bu yerda $P$ – bosim, $V$ – hajm, $n$ – gaz miqdori, mol, $T$ – harorat (K) , $R$ – universal gaz doimiysi ( $8,314\text{ J/mol}^{\circ}\text{K}$ ).

<b>6</b>	Boyl – Mariot qonuni	Berilgan miqdordagi gazning o‘zgarmas temperaturadagi hajmi shu gazning bosimiga teskari proporsionaldir. $PV = \text{const}$
<b>7</b>	Gey – Lyussak qonuni	O‘zgarmas bosimda gaz hajmining o‘zgarishi temperaturaga to‘g‘ri proporsionaldir.

**1) Boyl Mariot qonuni 1676-y (T=const)**  $\rightarrow P_0 V_0 = P_1 V_1$  yani; 1)  $P_0 = \frac{P_1 V_1}{V_0}$  2)

$$P_1 = \frac{P_0 V_0}{V_1}$$

**2) Gey-Lyussak qonuni 1802-y (P=const)**  $\rightarrow \frac{V_0}{T_0} = \frac{V_1}{T_1}$  yani; 1)  $V_0 = \frac{V_1 T_0}{T_1}$  2)

$$V_1 = \frac{V_0 T_1}{T_0}$$

**3) Sharl qonuni 1784-y (V=const)**  $\rightarrow \frac{P_0}{T_0} = \frac{P_1}{T_1}$  yani; 1)  $P_0 = \frac{P_1 T_0}{T_1}$  2)  $P_1 = \frac{P_0 T_1}{T_0}$

### **UNIVERSAL GAZ DOIMIYSI QUYIDAGICHA TOPILADI.**

**1) Bosim kPa da bo‘lsa.**  $R = \frac{P_0 V_0}{T_0} = \frac{101,325 \cdot 22,4}{273} = 8,314 \text{ Kj/mol}$

**2) Bosim Pa da bo‘lsa.**  $R = \frac{P_0 V_0}{T_0} = \frac{101325 \cdot 22,4}{273} = 8314 \text{ Kj/mol}$

**3) Bosim sim·ust da bo‘lsa.**  $R = \frac{P_0 V_0}{T_0} = \frac{760 \cdot 22,4}{273} = 62,36 \text{ Kj/mol}$  → yani bir nomi “TORR” bosim.

**4) Bosim 1 atm da bo‘lsa.**  $R = \frac{P_0 V_0}{T_0} = \frac{1 \cdot 22,4}{273} = 0,082 \text{ Kj/mol}$

Temperatura o‘chovi → FARANGEYT

FORMULA:

0 °C yoki 273K = 32 F

F = 1,8 \* C + 32

**P·V·Mr = m·R·T** formuladan

**1) Bosim; P =  $\frac{m \cdot R \cdot T}{V \cdot Mr}$**  2) Hajm; V =  $\frac{m \cdot R \cdot T}{P \cdot Mr}$  3) Molekulyar massa; Mr =  $\frac{m \cdot R \cdot T}{V \cdot P}$

**4) Massa ; m =  $\frac{P \cdot V \cdot Mr}{R \cdot T}$**  5) Temperatura; T =  $\frac{P \cdot V \cdot Mr}{m \cdot R}$  6) mol ; n =  $\frac{P \cdot V}{R \cdot T}$

Moddalar			Reaksiyalar
Nº	Moddalarning nomi	Formulasi	
1	Pirit	FeS <sub>2</sub>	Kaliy permanganatning parchalanishi: $2\text{KMnO}_4 \rightarrow \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{MnO}_2 + \text{O}_2$
2	Malaxit	Cu(OH) <sub>2</sub> · CuCO <sub>3</sub>	Bertolle tuzining parchalanishi(katalizator ishtirokida): $2\text{KClO}_3 \rightarrow 2\text{KCl} + 3\text{O}_2$
3	Dolomit	CaCO <sub>3</sub> · MgCO <sub>3</sub>	Bertolle tuzining parchalanishi(katalizatorsiz): $4\text{KClO}_3 \rightarrow 3\text{KClO}_4 + \text{KCl}$
4	Oxaktosh, marmar	CaCO <sub>3</sub>	Ozonning kaliy yodid eritmasi bilan ta'siri: $2\text{KI} + \text{H}_2\text{O} + \text{O}_3 \rightarrow 2\text{KOH} + \text{I}_2 \downarrow + \text{O}_2$
5	Bura, tanokor	Na <sub>2</sub> B <sub>4</sub> O <sub>7</sub> · 10 H <sub>2</sub> O	Alyuminiy karbidning gidrolizi: $\text{Al}_4\text{C}_3 + 12\text{H}_2\text{O} \rightarrow 4\text{Al}(\text{OH})_3 + 3\text{CH}_4$
6	Potash	K <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	Kalsiy karbidning gidrolizi: $\text{CaC}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Ca}(\text{OH})_2 + \text{C}_2\text{H}_2$
7	Glauber tuzi	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> · 10 H <sub>2</sub> O	Ammiakning yonishi(katalizator ishtirokida): $4\text{NH}_3 + 5\text{O}_2 \rightarrow 4\text{NO} + 6\text{H}_2\text{O}$
8	Sulema	HgCl <sub>2</sub>	Ammiakning yonishi(katalizatorsiz): $4\text{NH}_3 + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{N}_2 + 6\text{H}_2\text{O}$
9	Kuldiruvchi gaz	N <sub>2</sub> O	Malaxining parchalanishi: $(\text{CuOH})_2\text{CO}_3 \rightarrow 2\text{CuO} + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
10	Tulki dumi	NO <sub>2</sub>	Ohaktoshning parchalanishi: $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2$
11	Is gaz	CO	Fosfor olish reaksiyasi: $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 3\text{SiO}_2 + 5\text{C} \rightarrow 3\text{CaSiO}_3 + 2\text{P} + 5\text{CO}$
12	Zar suv, shoh arog'i	3HCl · HNO <sub>3</sub>	Dolomitning parchalanishi: $\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3 \rightarrow \text{MgO} + \text{CaO} + 2\text{CO}_2$
13	Qaldiroq gaz	2H <sub>2</sub> · O <sub>2</sub>	Natriy atsetatdan metan olish: $\text{CH}_3\text{COONa} + \text{NaOH} \rightarrow \text{CH}_4 + \text{Na}_2\text{CO}_3$
14	Sintez gazi	CO · 2H <sub>2</sub>	Ammiakning sanoatda olinishi: $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3$
15	Soda	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	Karbonat angidridni bog'lash(regeneratsiya): $2\text{Na}_2\text{O}_2 + 2\text{CO}_2 \rightarrow 2\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{O}_2$
16	Kristal soda	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> · 10 H <sub>2</sub> O	Xlorning sovuq ishqor eritmasiga ta'siri: $2\text{KOH} + \text{Cl}_2 \rightarrow \text{KCl} + \text{KClO} + \text{H}_2\text{O}$
17	Ichimlik soda	NaHCO <sub>3</sub>	Xlorning qaynoq ishqor eritmasiga ta'siri: $6\text{KOH} + \text{Cl}_2 \rightarrow 5\text{KCl} + \text{KClO}_3 + 3\text{H}_2\text{O}$
18	Tahir tuz	MgSO <sub>4</sub> · 7 H <sub>2</sub> O	Voodorod peroksidning parchalanishi: $2\text{H}_2\text{O}_2 \rightarrow 2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2$
19	Mis kuporosi	CuSO <sub>4</sub> · 5 H <sub>2</sub> O	
20	Temir kuporosi	FeSO <sub>4</sub> · 7 H <sub>2</sub> O	
21	Gips	CaSO <sub>4</sub> · 2 H <sub>2</sub> O	
22	Albaster	CaSO <sub>4</sub> · 0,5 H <sub>2</sub> O	
23	Kuporos moyi	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	
24	Novshadil spirit	NH <sub>4</sub> OH	
25	Metil spirit	CH <sub>3</sub> OH	
26	Etil spirit	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH	
27	Asetilen	C <sub>2</sub> H <sub>2</sub>	
28	Bertolle tuzi	KClO <sub>3</sub>	
29	Margansofka	KMnO <sub>4</sub>	
30	Kalsiy karbid	CaC <sub>2</sub>	
31	Alyuminiy karbid	Al <sub>4</sub> C <sub>3</sub>	
32	Sirk kislota	CH <sub>3</sub> COOH	
33	Chumoli kislota	HCOOH	
34	Silan	SiH <sub>4</sub>	
35	Fosfin	PH <sub>3</sub>	
36	Arsin	AsH <sub>3</sub>	
37	Stibin	SbH <sub>3</sub>	
38	Ammiak	NH <sub>3</sub>	
39	Silvinit	KCl · NaCl	
40	Kaustik soda	NaOH	
41	Kinovar	HgS	
42	Qum, kvars, shisha	SiO <sub>2</sub>	
43	Xalkopirit	CuFeS <sub>2</sub>	
44	So'ndirilgan oxak	Ca(OH) <sub>2</sub>	
45	So'ndirilmagan oxak	CaO	
46	Qizil qon tuzi	K <sub>3</sub> [Fe(CN) <sub>6</sub> ]	
47	Sariq qon tuzi	K <sub>4</sub> [Fe(CN) <sub>6</sub> ]	
48	Quruq muz	CO <sub>2</sub>	
49	Suv gazi	CO · H <sub>2</sub>	
50	Metan	CH <sub>4</sub>	
51	Benzol	C <sub>6</sub> H <sub>6</sub>	
52	Toluol	C <sub>7</sub> H <sub>8</sub>	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA  
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**KIMYONI O'RGANAMIZ  
(USLUBIY QO'LLANMA)**

**(Uslubiy qo'llanma)**

**“Bilik ilmiy faoliyat” nashriyoti**

**Muharrir:** Fayzullayeva G.

**Texnik muharrir:** Xujakulov Sh.

**Nashrga tayyorlovchi:** Abdullayev F.



**№ 098355**

“Bilik ilmiy faoliyat” nashriyoti,  
Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqandshahar,  
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati,  
Samarqandshahar, X.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.  
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 11.04.2024-yil. Bosishga ruxsat etildi: 25.04.2024-yil.

Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>, “Times New Roman” garniturası.  
Bosma tabog‘i 3,25. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2024/6  
Bahosi kelishilgan narxda  
Noshirlik litsenziysi: № 098355

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish  
milliy markazibosmaxonasida nashr etildi